


№497, 7-mart, 2022 y.



COVID-19 ga qarshi vaksinalarning  
ishlanmalari bo'yicha

# DAYJEST

O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi huzuridagi  
Ilmiy-texnik axborot markazi











Toshkent-2022

# Jahonda pandemiya bilan bog'liq vaziyat

2022 y. 2-mart holatiga ko'ra

Umumiy zararlanganlar soni	-	445 124 476	(+ 1 371 607)
Sog'ayganlar soni	-	378 176 852	(+ 1 407 876)
Vafot etganlar soni	-	6 015 066	(+ 5 648)

## Mamlakatlar bo'yicha bemorlar soni


	AQSh	-	80 912 619	(+ 16 213)
	Hindiston	-	42 962 953	(+ 5 476)
	Braziliya	-	29 033 052	(+ 58 737)
	Fransiya	-	23 011 998	(+ 53 678)
	Buyuk Britaniya	-	19 119 181	(+ 44 017)
	Rossiya	-	16 861 793	(+ 86 769)
	Germaniya	-	15 723 907	(+ 144 427)
	Turkiya	-	14 326 217	(+ 32 389)
	Italiya	-	12 990 223	(+ 39 963)
	O'zbekiston	-	236 967	(+ 68)

Manba: <https://www.worldometers.info/coronavirus/>




# O'zbekistonda pandemiya bilan bog'liq vaziyat

2022 y. 6-mart holatiga ko'ra



Fevral 2022-yil



Mart 2022-yil



# O'zbekistonda COVID-19 qarshi vaksinatsiya bo'yicha hisobot

2022 y. 5-mart holatiga ko'ra

Hududlar	Jami emlanganlar soni	Bir kunda emlanganlar soni
Qoraqalpog'iston Respublikasi	2 309 149	2 822
Andijon viloyati	4 607 927	13 612
Buxoro viloyati	2 555 485	5 658
Jizzax viloyati	1 614 234	3 854
Qashqadaryo viloyati	3 742 953	10 401
Navoiy viloyati	1 453 970	2 956
Namangan viloyati	4 219 951	4 047
Samarqand viloyati	5 456 354	13 031
Surxondaryo viloyati	3 670 681	7 137
Sirdaryo viloyati	1 043 970	2 525
Toshkent viloyati	4 399 095	13 883
Farg'ona viloyati	4 991 481	8 576
Xorazm viloyati	2 738 035	4 573
Toshkent sh.	3 647 408	5 520
<b>Jami</b>	<b>46 450 693</b>	<b>98 595</b>

Manba: SSV matbuot kotibi // <https://t.me/ssvmatbuotkotibi>



# JSST tomonidan baholash jarayonida COVID-19 ga qarshi vaksinlarning holati

2022 y. 4-mart holatiga ko'ra


№	Ishlab chiqaruvchi	Vaksina nomi	Platforma	Arizalarni qabul qilish	Uchrashuv o'tkazish	Ma'lumotnomani ko'rib chiqish uchun qabul qilish	Baholash holati	Kutilayotgan chiqish sanasi
1	Pfizer	BNT162b2/COMIRNATY	mRNA	+	+	+	Yakunlangan	Tasdiqlangan 31.12.2020
2	AstraZeneca/University of Oxford	AZD1222	Recombinant replication defective chimpanzee adenovirus expressing surface glycoprotein SARS-CoV-2	+	+	+	Yakunlangan	Tasdiqlangan 15.02.2021
3	Janssen	Ad26.COV2.S	Recombinant vector vaccine against adenovirus type 26 (Ad26), incapable of replication, encoding Spike (S) protein (SARS-CoV-2)	+	+	+	Yakunlangan	Tasdiqlangan 12.03.2021
4	SK BIOscience - AstraZeneca/University of Oxford	AZD1222	Recombinant adenoviral vector ChAdOx1 encoding the Spike SARS-CoV-2 protein antigen	+	+	+	Yakunlangan	Tasdiqlangan 16.04.2021
5	Serum institute of India	Covishield	mRNA-based vaccine encapsulated in lipid nanoparticles	+	+	+	Yakunlangan	Tasdiqlangan 16.04.2021
6	Moderna	mRNA-1273	Inactivated, produced in Vero cells	+	+	+	Yakunlangan	Tasdiqlangan 30.04.2021
7	Sinopharm / BIBP	SARS-CoV-2 Vaccine (Vero Cell), Inactivated (InCoV)	Inactivated, produced in Vero cells	+	+	+	Yakunlangan	Tasdiqlangan 07.05.2021
8	Sinovac	SARS-CoV-2 Vaccine (Vero Cell), Inactivated	Protein subunit virus-like particle vaccine	+	+	+	Yakunlangan	Tasdiqlangan 01.06.2021
9	Novavax	NVX-CoV2373, Covovax, Nuvaxovid		+	+	+	Yakunlangan	Tasdiqlangan 17.12.2021

Manba:

Status of COVID-19 Vaccines within WHO EUL // [https://extranet.who.int/pqweb/sites/default/files/documents/Status\\_COVID\\_VAX\\_20Oct2021.pdf](https://extranet.who.int/pqweb/sites/default/files/documents/Status_COVID_VAX_20Oct2021.pdf)

# Vaksinani tasdiqlagan va undan foydalanilayotgan mamlakatlar soni

2022 y. 4-mart holatiga ko'ra



Manbalar:

\*Approved or Authorized Vaccines // [https://  
COVID-19 Vaccine Market Dashboard //](https://www.unicef.org/supply/covid-19-vaccine-market-dashboard)

<https://www.unicef.org/supply/covid-19-vaccine-market-dashboard>

\*\*Tracking Coronavirus Vaccinations Around the World //


<https://www.nytimes.com/interactive/2021/world/covid-vaccinations-tracker.html>



# Mamlakatlar va kontinentlar kesimida COVID-19 ga qarshi emlanganlar soni

2022 y. 4-mart holatiga ko'ra

№	Davlatlar	Emlanganlar soni		Aholining umumiy sonida emlanganlarning ulushi	
		100 ta kishiga	Jami	Bitta doza bilan emlangan	To'liq emlangan
	<b>Dunyo</b>	<b>140</b>	<b>10 725 630 841</b>	<b>64%</b>	<b>57%</b>
1	BAA	247	24 105 222	99%	97%
2	Bruney	237	1 026 843	94%	93%
3	Portugaliya	222	22 838 059	94%	91%
4	Chili	255	48 240 042	94%	91%
5	Kuba	309	34 971 046	94%	87%
6	Malta	247	1 241 680	94%	92%
7	Xitoy	224	3 124 118 000	91%	88%
8	Argentina	208	93 505 353	90%	80%
9	Kambodja	213	35 067 827	88%	84%
10	Singapur	236	13 452 417	87%	86%




Manba:  
Tracking Coronavirus Vaccinations Around the World // <https://www.nytimes.com/interactive/2021/world/covid-vaccinations-tracker.html>



# COVID-19 ga qarshi vaksinalarning narxi

2022 y. 4-mart holatiga ko'ra

No	Vaksinaning ishlab chiqaruvchisi	Vaksinalarning narxi (bitta doza uchun)*
1	Pfizer	\$6,75-22,94
2	AstraZeneca/University of Oxford	\$2,19-5
3	Serum institute of India	\$3-13,27
4	Sinopharm	\$144,27 (2 ta doza uchun)
5	Sinovac	\$10,30-29,75
6	Moderna	\$15-37
7	Janssen	\$8,50-10
8	The Gamaleya National Center (Sputnik V)	\$11-19,90



Manba:

\* COVID-19 Vaccine Market Dashboard //

[https://www.unicef.org/supply/covid-19-vaccine-market-](https://www.unicef.org/supply/covid-19-vaccine-market-dashboards)

[dashboards?utm\\_source=facebook&utm\\_medium=organic&utm\\_campaign=coronavirus&fbclid=IwAR101804JupyKfUU1u6osTc-nNVGj7kiYDI8eJtiMUgjEIALGhYO3w0EE](https://www.unicef.org/supply/covid-19-vaccine-market-dashboards?utm_source=facebook&utm_medium=organic&utm_campaign=coronavirus&fbclid=IwAR101804JupyKfUU1u6osTc-nNVGj7kiYDI8eJtiMUgjEIALGhYO3w0EE)



# JSST COVID-19 ning og'ir holatlarini oldini olish uchun preparat tavsiya etildi

3-mart kuni Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) kasalxonaga yotqizish zaruratining oldini olish uchun COVID-19 ning og'ir bo'lmagan holatlarida molnupiravir preparatini qo'llashni tavsiya qildi. Bu JSST tomonidan koronavirusga qarshi kurashish maqsadida tasdiqlangan birinchi og'iz orqali qabul qilinadigan antiviral preparatdir. Xabar JSST veb-saytida e'lon qilindi [5].

Mutaxassislar molnupiravirning yangi, yetarlicha o'rganilmagan dori ekanligini ta'kidlab, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nojo'ya ta'sirlarni oldini olish maqsadida mamlakatlar preparatni qo'llash vaqtida bemorlarning ahvolini faol kuzatishni tavsiya qildi.

Hozirgi vaqtda preparatning ta'siri to'g'risida yetarli ma'lumotlar mavjud emasligi sababli, JSST uni faqat xavf ostida bo'lgan bemorlarda COVID-19 ning og'ir bo'lmagan shakllari uchun qo'llashni taklif qildi. Bu emlanmaganlar, keksalar, immunitet tanqisligi va surunkali kasalliklarga chalinganlar haqida bormoqda.



Ushbu bosqichda molnupiravir bolalar, homilador va emizikli onalarga tavsiya etilmaydi. Tavsiya etilgan davolash kursi simptomlar boshlanganidan boshlab besh kun davomida kuniga ikki marta to'rtta tabletkadan iborat. Bundan tashqari, uni imkon qadar erta boshlash kerak - JSST ekspertlarining fikriga ko'ra,

davolanishning samaradorligi bunga bog'liq [6].

Oktyabr oyida UNITAID (JSST bilan hamkorlik qiladigan global agentlik kasalliklarning oldini olish, tashxislash va davolashni samaraliroq va arzonroq qilish uchun innovatsion usullarni topishga ixtisoslashgan) molnupiravirning yengil va o'rtacha og'irlikdagi kasalxonaga yotqizish xavfini 50 foizga kamaytirishga yordam berish haqidagi hisobotni mamnuniyat bilan qabul qildi. Tashkilotning hamkorlikdagi ACT-Accelerator nomidan bayonot berishicha, muhtoj bo'lgan har bir fuqaro COVID-19 ni davolash va oldini olish uchun arzon vositalarga ega bo'lishini ta'minlash uchun ishlab chiqilgan. Tadqiqotlar natijalariga ko'ra, preparat koronavirus infeksiyasi yuzaga kelganida qabul qilinsa, kasalxonaga yotqizish yoki o'lim xavfini 50 foizga kamaytirishi mumkin [7].



# Fransiya karantin choralarini sezilarli darajada kamaytirmoqda

14-martdan Fransiya hukumati COVID-19 pandemiyasiga qarshi kurashda qo'yilgan cheklovlarni bekor qilishni rejalashtirmoqda. Emlash sertifikatlari va tibbiy niqob kiyish majburiyati bekor qilinadi. Bu haqda payshanba kuni Fransiya bosh vaziri Jan Kasteks ma'lum qildi [8, 9].

“Biz sanitariya choralarini yumshatishning yangi bosqichiga kirmoqdamiz”, dedi u mahalliy teleradiokompaniyasiga bergan intervyusida.



O'tgan haftalarda Fransiya hukumati boshqa sanitariya choralarini bosqichma-bosqich bekor qildi. 28-fevralda “emlash talonlari” amal qilgan yopiq joylarda niqob taqish rejimini bekor qilindi, 2021-yil 10-dekabrda buyon yopilgan tungi klublar 2022-yil 16-fevralda qayta ochildi.

Mamlakatda koronavirusning beshinchi to'liqini yanvar oyi oxirida eng yuqori cho'qqisiga chiqqanidan keyin bir necha hafta davomida pasaymoqda. Fransiyada haftasiga o'rtacha yangi infeksiyalar soni 58,000 dan oshdi, bu ko'rsatkich bir hafta oldin 70,000 dan oshgan edi.



Bosh vazir J. Kasteks ta'kidlaganidek, “sanitariya dovoni” shifoxonalar kabi tibbiyot muassasalarida, shuningdek, qariyalar uylarida qoladi. Bundan tashqari, tibbiy xodimlarni emlash majburiy bo'lib qoladi. Jamoat transportida, shuningdek, tibbiyot muassasalarida majburiy niqob taqish davom ettiriladi [10].

# Rossiyalik olimlar vaksinalarning hayot aylanish jarayonini boshqarish uchun innovatsion ekotizimni ishlab chiqdilar



Buyuk Pyotr Sankt-Peterburg Politexnika Universiteti (SPbPU) Oliy biznes muhandisligi maktabining tadqiqot guruhi mutaxassislari vaksinalarning hayot aylanishini boshqarish uchun innovatsion ekotizim arxitekturasini ishlab chiqdilar, jumladan, joriy qilish, ishlab chiqarish, sog'liqni saqlash tashkilotlariga tarqatish va ulardan foydalanish

samaradorligi baholandi. Tadqiqot natijalari *Journal of open innovation: Technology, Market, and Complexity* ilmiy jurnalida chop etildi [11].

Vaksinalarni joriy qilish, ishlab chiqarish, yetkazib berish va samaradorligini baholashning tibbiy, iqtisodiy, texnik va boshqaruv tizimlari va tuzilmalarini ishlab chiqish va takomillashtirish pandemiyani muvaffaqiyatli yengishning zaruriy shartlaridan biridir. Bu oson ish emas, chunki bu jarayonning barcha ishtirokchilarini bir butunga birlashtirish lozim.

Ushbu muammoni hal qilish uchun SPbPU olimlari milliy va mintaqaviy darajada vaksinalarni ishlab chiqarish va emlashni samarali boshqaradigan ta'minot zanjirining barcha ishtirokchilarining o'zaro ta'siri uchun maxsus ekotizimni ishlab chiqdilar.

“Raqamli, axborot va boshqaruv texnologiyalari integratsiyasi sohasidagi ishlanmalarimiz vaksinalarning hayotiy siklining barcha ishtirokchilarini birgalikdagi faoliyati uchun tashkiliy asos, shuningdek, ma'lumot almashish uchun samarali platforma bilan ta'minlashga qaratilgan”, deb tushuntirdi SPbPU biznes muhandisligi oliy maktabi direktori Igor Ilyin. [12].

Mutaxassislarning fikricha, bunday platformaning mavjudligi yangi vaksinalarning bozorga kirish siklini qisqartiradi, barqaror virus yuki sharoitida vaksinalarni ishlab chiqarish rejalashtirilgan iqtisodiy samaradorligini oshiradi, ularni ishlab chiqish va ishlab chiqarish xavfini kamaytiradi.

# Rossiyaning Valenta Pharm kompaniyasi COVID-19ning yengil formasi bilan og'rikan bemorlar uchun tabletkalar ko'rinishidagi preparatni ro'yxatdan o'tkazdi

Rossiyaning "Valenta Pharm" kompaniyasi COVID-19ning yengil formasi bilan og'rikan bemorlar uchun og'iz orqali yuboriladigan Ateriksen preparatini ro'yxatga olinganini e'lon qildi. Preparat tezlashtirilgan tartibda ro'yxatga olinadi. Valenta Pharm xabar berishicha, Ateriksen koronavirus infeksiyasi uchun proaktiv yallig'lanishga qarshi terapiyada qo'llaniladi. Preparat yengil COVID-19 ni davolash bo'yicha ko'rsatmalarni o'z ichiga olgan [13].

500 dan ortiq odam ishtirok etgan Aterixen preparatidan foydalanish bo'yicha klinik tadqiqotlarda, COVID-19 bilan kasallangan ambulatoriya bemorlarini kasalxonaga yotqizishni 80% ga kamaytirishga olib keldi. Ko'rsatmalar faqat preklinik tadqiqotlar natijalarini ko'rsatdi.

Sog'liqni saqlash vazirligining COVID-19 ni davolash, profilaktikasi va diagnostikasi bo'yicha tavsiyalariga ko'ra, yallig'lanish reaksiyasi rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi dorilar faqat shifoxona sharoitida qo'llaniladi. Levilimab, olokizumab, tofatsitinib, baritsitinib, tosilizumab, sarilumab, anakinra inyeksiya uchun mo'ljallangan. Aterixen preparati tabletkalar ko'rinishida ishlab chiqariladi.



Ateriksen asosida ishlatiladigan XC221 molekulasini Vladimir Nebolsing tegishli Skolkovo rezidenti Pharminterprices tomonidan ishlab chiqilgan. Preparat gripp va SARSni davolash uchun ishlab chiqilgan, shuning uchun birinchi klinik sinovlar pandemiyadan oldin 2017-yilda ham bo'lib o'tgan. 2020-yilda molekulaga qo'shimcha qiziqish paydo bo'ldi, dedi Nebolsin "Kommersant Nauka" gazetasiga bergan intervyusida. Uning so'zlariga ko'ra, Valenta Pharm tadqiqotga qo'shildi va hozirda preparat uchun normativ sertifikat egasi sifatida faoliyat yuritmoqda.

Ateriksen uchun modda Chexiyaning Alven Laboratoriyesi kompaniyasi tomonidan ishlab chiqariladi, ishlab chiqarishning boshqa bosqichlari Obninsk kimyoviy-farmatsevtika kompaniyasiga yuklangan.

Valenta Pharm o'zining boshqa dorisi Ingavirinni ham COVID-19 ga qarshi sinovdan o'tkazmoqda. Hozirgi vaqtda preparatning samaradorligi va xavfsizligi bo'yicha III bosqich tadqiqotlari olib borilmoqda [14].

1. Reported Cases and Deaths by Country, Territory, or Conveyance // <https://www.worldometers.info/coronavirus/> (6.03.2022)
2. Approved or Authorized Vaccines // <https://www.nytimes.com/interactive/2020/science/coronavirus-vaccine-tracker.html> (4.02.2022)
3. COVID-19 Vaccine Market Dashboard // <https://www.unicef.org/supply/covid-19-vaccine-market-dashboard> (4.02.2022)
4. Tracking Coronavirus Vaccinations Around the World // <https://www.nytimes.com/interactive/2021/world/covid-vaccinations-tracker.html> (4.02.2022)
5. WHO updates its treatment guidelines to include molnupiravir // <https://www.who.int/news/item/03-03-2022-molnupiravir> (6.02.2022)
6. Molnupiravir recommended by WHO to reduce COVID-19 hospitalisations // <https://www.healtheuropa.eu/molnupiravir-recommended-by-who-to-reduce-covid-19-hospitalisations/113863/> (6.02.2022)
7. В ВОЗ рекомендовали препарат, предотвращающий тяжелое течение COVID-19 // <https://news.un.org/ru/story/2022/03/1419152> (6.02.2022)
8. France to suspend rules requiring Covid-19 vaccine passes on March 14 // <https://www.france24.com/en/live-news/20220303-france-to-suspend-rules-requiring-covid-19-vaccine-passes-on-march-14> (6.02.2022)
9. France to suspend Covid vaccine pass from 14 March as situation improves masks // <https://www.rfi.fr/en/france/20220304-france-to-suspend-covid-vaccine-pass-from-14-march-as-situation-improves-masks> (6.02.2022)
10. Во Франции значительно смягчают карантинные меры // [https://www.inform.kz/ru/vo-francii-znachitel-no-smyagchayut-karantinnye-mery\\_a3907232](https://www.inform.kz/ru/vo-francii-znachitel-no-smyagchayut-karantinnye-mery_a3907232) (6.02.2022)
11. Innovative Ecosystem Model of Vaccine Lifecycle Management // <https://www.mdpi.com/2199-8531/8/1/5> (6.02.2022)
12. Российские ученые разработали инновационную экосистему для управления жизненным циклом вакцин // <https://scientificrussia.ru/articles/rossijskie-ucenye-razrabotali-innovacionnuu-ekosistemu-dla-upravlenia-ziznennym-ciklom-vakcin> (6.02.2022)
13. Российская фармацевтическая компания "Валента Фарм" получила регистрационное удостоверение на инновационный отечественный препарат Атериксен // <https://www.valentapharm.com/news/1349/> (6.02.2022)
14. «ВАЛЕНТА ФАРМ» зарегистрировала пероральный препарат для пациентов с легким течением COVID-19 // <https://www.vademec.ru/news/2022/03/03/valenta-farm-zaregistrirovala-peroralnyy-preparat-dlya-patsientov-s-legkim-techeniem-covid-19/> (6.02.2022)



O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi huzuridagi  
Ilmiy-texnik axborot markazi

Toshkent-2022